

AXBOROT URUSHINING DAVLAT XAVFSIZLIINI TA'MINLASHDAGI STRATEGIK IMKONIYATLARI

Sodiqov Mirjalol,

Umumiy taktika va operativ san'at kafedrasi o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada axborot urushining strategik imkoniyatlari davlat xavfsizligi nuqtai-nazardan taxlil qilingan. Shuningdek, axborot targ'iboti va aloqa endi harbiy strategiyaning bir qismi ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Maqolada zamonaviy urush faqat harbiy harakatlar bilan cheklanib qolmasdan, balki axborotdan foydalangan holatda yangi usullar bilan olib borilayotgani dalillar asosida ocib berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, xavfsizlik, urush, axborot urushi, strategik axborot, axborot hujumi, internet, psixologik urush.

Аннотация

В данной статье анализируются стратегические возможности информационной войны с точки зрения национальной безопасности. Также научно обосновано, что распространение информации и связь теперь являются частью военной стратегии. В статье при помощи жизненных обоснований освещено то что современна войне не ограничены только военными действиями, они продолжается благодаря связи и пропаганде.

Ключевые слова: информацион, безопасность, война, информационная война, стратегическая информация, информационная атака, интернет, психологическая война.

Annotation

This article analyzes the strategik possibilities of information warfare from a national security perspective. It is also scientifically based that information dissemination and communication are now part of a military strategy. The article has tried to prove through vital evidence that modern warfare is not limited to military action, but will continue in the fields of diplomacy, economics, information and propaganda.

Key words: information, security, war, information warfare, strategik information, information attack, internet, psychological warfare.

Butun dunyoda axborot oqimi tezlashib borayotgan bir paytda, axborot yaratuvchi davlatlarham o‘zлari yaratgan axborontnng “asiriga” aylanib qolmoqda. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlab o‘tganidek “Navqiron avlodimizni bugungi axborot makonida mavjud taxdidlardan himoya qilish, ularda yot va zararli taxidlarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish maqsadida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yoshlар, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida amaliy ishlarimiz samaradorigin oshirishimiz zarur”[1]. Axborot urushi dunyo uchun jiddiy tahdid. Bu urush urush olib borishning yangicha ko‘rinishiga aylanib bormoqda. Odamlar doimiy ravishda axborotlardan xabardor qilinadi. Axborot tezda odamlarning kayfiyatiga ta’sir qiladi va ularni boshqaradi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan axborotga qulay va tez kirish imkoniyati ortib, davlat va jamiyat faoliyatini kuzatish, unga munosabat bildirish toboro osonlashmoqda. Bizning zamonaviy dunyomizda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi urush usulining zamonaviy shakllarini yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Mutaxassislarning qayd etishicha, kelgusida urushlar davlatlarning muntazam armiyalari o‘rtasida emas, balki zamonaviy AKT (axborot-kommunikastiya texnologiyalari) bilan qurollangan, yuqori tayyorgarlikdan o‘tgan, asosiy maqsadi qarama-qarshi tomonning axborot resurslarini egallab olish yoki nazorat qilishdan iborat maxsus guruhlar o‘rtasida bo‘ladi.

Qiziq, “axborot urushi” atamasi qaerdan kelgan? “Axborot urushi” atamasi birinchi marta 1976 yilda amerikalik mutaxassis Tomas Rona tomonidan Boeing kompaniyasi uchun “Qurol tizimlari va axborot urushi” deb nomlangan hisobotida qo‘llanilgan. Ronaning ma’ruzasi so‘nggi yillarda axborot infratuzilmasi AQSh xavfsizliginingning asosiy tarkibiy qismiga aylanganini isbotladi. “Axborot urushi” atamasi birinchi marta 1992 yilda AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan rasman ishlatilgan[2]. Pentagonning axborot urushiga oid hujjatida axborot ham qurol, ham nishon ekanligi ta’kidlangan: “Axborot hujumi - bu axborotni ruxsatsiz, shuningdek, dasturiy, texnik vositalar va inson psixologiyasini har qanday shaklda uzatish, o‘zgartirish yoki yo‘q qilish bo‘yicha operatsiyadir”. Rossiyalik ekspertlar kurashning bu shaklini axborot qarama-qarshiligi deb ta’riflaydilar[3].

Hozirgi davrda “axborot urushi” atamasi fanda keng qo‘llanilmoqda. Chunki bugungi kunda jamiyatda milliy axborot resurslarini muhofaza qilish tobora dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarning axborot qurolidan foydalanishi va global axborot infratuzilmasini yaratish ushbu mamlakatlarning jahon etakchisiga aylanish g‘oyasidan kelib chiqadi. Ochiq axborot tarmog‘ining kengayishi, kompyuter jinoyatlarining kuchayishi, siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun yuqori darajadagi axborot xurujlari tahdidining kuchayishi axborot urushi va axborot xavfsizligi kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Axborot urushlarida eng kuchli qurol bu axborot va noto‘g‘ri ma’lumotlardir. Qarama-qarshilik chog‘ida tomonlar o‘z davlatining axborot infratuzilmasini himoya qilgan holda, dushman qo‘sishlarining axborot tizimlari, axborot manbalari va axborot infratuzilmasini yo‘q qilishga urinishadi.

Harbiy harakatlar davomida urushayotgan tomonlar harbiy xizmatchilarning, shuningdek, aholining ma'naviyatini larzaga keltirish uchun turli xil axborot ta'siridan foydalanadilar. Axborotning ta'siri allaqachon ba'zi rivojlangan mamlakatlarning harbiy doktrinasida o'z aksini topgan. Ko'pgina mamlakatlarda turli operastiyalarda qo'llaniladigan amaliy axborot urushi strategiyalari mavjud. Hozirda "Aloqasiz urush" deb atalmish yolg'on, shantaj, qo'rqtish, mafkuraviy sabotaj va boshqa ommaviy axborot vositalaridan ham foydalanilmoqda. Bu operastiyalardan maqsad davlat siyosatidan norozilik, shubha va ishonchsizlik uyg'otish, armiya va aholi o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirishdir[4].

Texnik ma'lumotlarga qarshi kurashda hujum va mudofaaning asosiy ob'ektlari boshqaruv va telekommunikastiya tizimlari, turli elektron vositalar hisoblanadi. Psixologik ma'lumotlar uchun kurashda asosiy hujum va mudofaa ob'ektlari qurolli kuchlarning shaxsiy tarkibi va kuch tuzilmalari, qarama-qarshi tomonning aholisi, jamoatchilik fikrini shakllantirish va qarorlar qabul qilish tizimlari psixikasi hisoblanadi. Axborot urushi psixologik axborot urushi deb ham ataladi. Bunday urushlarda ular jamiyatning axborot manbalarini, odamlarning o'zi va atrofidagi dunyo haqidagi tasavvurlarini buzish yoki o'zgartirishga xizmat qiladi.

Axborot urushlari davrida axborot ustunligiga erishish muhimdir. Bu vaziyat haqida doimiy ma'lumot oqimini toplash, boshqarish, tarqatish va raqibning shunga o'xshash urinishlarini oldini olish qobiliyati singari xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Axborot tarmog'i axborot urushi ishtiropchilari tomonidan salbiy va anonim ma'lumotlarni nazoratsiz joylashtirish imkonini beradi. Internetda axborot urushini yanada samarali va muvaffaqiyatli qiladigan bir qator belgilar mavjud. Masalan, tomoshabinlarning mashhurligi ana shunday belgilardan biridir. Qolaversa, axborot-kommunikastiya texnologiyalari rivoji tufayli har bir foydalanuvchi istalgan vaqtda, istalgan joyda internetga kirishi va undan foydalanishi mumkin.

Bugungi kunda ko'plab ilmiy markazlarda muhokama qilinayotgan asosiy masalalardan biri bu psixologik axborot urushi – "miya urushi"dir. Chunki bunday urushlarda asosiy ta'sir obekti inson ruhiyati, guruh psixologiyasi va butun jamiyatlardir. Psixologik konfliktda tashviqot alohida o'rin tutadi. Shunday qilib, urush davrida targ'ibot-tashviqot faoliyati odamlarning asosiy tuyg'ulariga ta'sir qilish, nafrat, qo'rquv, dahshat uyg'otish, inson ruhiyatini buzishga qaratilgan. Targ'ibot odamlarni muayyan harakatlar qilishga yoki talab qilinadigan g'oyalarni qabul qilishga undaydi. Urush paytida asirlikni targ'ib qilish, harbiy muvaffaqiyatlarni targ'ib qilish, mag'lubiyat qo'rquvini uyg'otish targ'iboti va boshqa shakllardan foydalaniladi.

Tarixda ma'lum bo'lgan eng jiddiy siyosiy va harbiy xatolar dushmanning ma'naviy holatiga noto'g'ri baho berish bilan bog'liq edi. Oddiy statistik hisob-kitoblar yordamida va mahbuslarning kichik guruhini o'rganish asosida barcha harbiy harakatlar teatrlarida dushman qo'shinlarining ruhiy holatini baholash mumkin. Asirlar yo'q bo'lganda, ma'lumotlarni tahlil qilish va dushmanning o'z qo'shinlari va aholisiga targ'iboti asosida deyarli bir xil natijalarga erishish mumkin. Bu bizga u yoki bu vaziyatda dushman qo'shinlarining xatti-harakatlarini taxmin qilish imkonini beradi. O'z xalqining ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan targ'ibot bilan dushman irodasini zaiflashtirishga qaratilgan targ'ibot o'rtasida katta farq bor. Albatta, notiq ham o'z xalqining fikrlash tarzini o'ylashi va uni qanday hal qilishni ham bilishi kerak. Boshqa odamlar bilan tanishish juda ko'p qo'shimcha bilim, etarli tajriba va tahliliy ko'nikmalarini talab qiladi.

Axborot urushi va uni qo'llash texnologiyalari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ba'zi tadqiqotchilarning aytishicha, axborot tajovuzkorligi doimo u yoki bu shaklda odamlar orasida yashab kelgan. Chunki odamlar axborotlarsiz yashashi mumkin emas: "Axborot urushi jismoniy urushsiz amalga oshirilishi mumkin, ammo jismoniy urush axborot urushisiz olib borilmaydi"[5]. Masalan, Chingizzonning yurishlarida qo'shin oldida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan otliqlarning ma'lum bir guruhi uning qo'shini nihoyatda kuchli va shafqatsiz askarlardan iborat, degan mish-mishlar tarqatib, aholi o'rtasida qo'rquv va tushkunlik uyg'otgan. Bunday psixologik usullardan boshqa mashhur sarkardalar Iskandar Zulqarnayn, Amir Temur va boshqalar ham foydalanganlar.

Bugun O'zbekistonning har bir fuqarosi, ayniqsa, yoshlari axborot urushida juda faol bo'lib, dushmanaga munosib javob qaytarmoqda. Ular O'zbekistonning o'z strategik taraqqiyotiga intilayotganligi haqidagi haqiqatni dunyoga, ayniqsa, nizolarni hal qilish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarga etkazish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanadilar.

Strategik axborot urushi milliy axborot infratuzilmasi – axborot resurslari, axborot tizimlari va axborot xizmatlarini maxsus texnologiyalar yordamida himoya qilishni taqozo etadi. Masalan, bugungi kunda Rossiya va Ukraina urushi kalendarini yaratishda tomonlarning harbiy texnikasi, o'q-dorilar ombori va harbiy ob'ektlarining o'qqa tutilishini aks ettiruvchi turli darajadagi yolg'on axborotlar soni ham tobora ortib bormoqda. Kam xarajatlar, chegaralarning noaniqligi, yangi strategik razvedka modellarini shakllantirish strategik axborot urushlarining asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Bu urushlarda har qanday nizo yuzaga kelgan taqdirda davlatlar mintaqaviy yoki xalqaro koalistiyaga kirishi qiyin. Chunki ular qanchalik ittifoqchi bo'lib ko'rinishmasin, har bir davlat milliy xavfsizligi uchun bir-biridan yashiradigan ma'lumotlar mavjud. Shu sababli ham ittifoqchi sifatida strategik axborot urushiga kirishish qarama-qarshi mamlakatlarning adekvat hujumiga olib kelishi mumkin.

Axborot urushida, ayniqsa, harbiy ma'lumotlarni olishda uchuvchisiz tizimlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizimlar tomonidan olingan tasvirlarning jamoatchilik fikriga ta'siri beqiyos.

Hozirgi paytda zamonaviy axborot urushi texnologiyalarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va keng qo'llanilishini turli talqinlari mavjud: kompyuter texnologiyalari va aloqa vositalarining jadal rivojlanishi, tarmoq texnologiyasining takomillashuvi axborotning jamiyat hayotidagi asosiy resurs sifatidagi rolining oshishiga olib keldi. Ilmiy-texnika yutuqlari harbiy sohada qo'llaniladigan an'anaviy qurollardan tashqari bir qator axborot-kommunikastiya texnologiyalari vositalarini ommaviy ishlab chiqarishga olib keldi, inson miyasi va xatti-harakatlarini o'rganishdagi ilmiy yutuqlar odamlarga usul va vositalarni yaxshiroq tushunish imkonini berdi. Mutaxassisning fikricha, axborot urushi muammosini xolis va to'liq tahlil qilish uchun ilg'or mamlakatlar tajribasi, xorijiy ekspertlar, olim va amaliyotchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish va solishtirish zarur. Buni xukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan turli darajadagi rasmiy hujjalardan ham bilib olishimiz mumkin[6].

Axborot urushi - jabrlangan tomonidan odamlarning psixologiyasiga, birinchi navbatda, ularning individual va jamoat ongiga, shuningdek, mavjud texnik vositalarga qarshi o'z maqsadlariga erishish uchun axborot ta'sirining turli usullari va vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan keng ko'lamli axborot operastiyasidir. Axborot hujumlari axborotni yo'q qilish, buzish yoki o'g'irlashdan tashqari quyidagilarni ham o'z ichiga oladi; xavfsizlik

tizimini engish; yuridik foydalanuvchilarning murojaatlariga cheklashlar kiritish; kompyuter tizimlari va texnik vositalarining noto‘g‘ri ishlashiga olib keladigan operastiyalar.

Mutaxasislarning fikriga ko‘ra, turli jinoiy guruhlар axborot xurujlarida fan va texnikaning so‘nggi yutuqlaridan faol foydalanmoqda[7]. So‘nggi yillarda mahalliy urushlar va qurolli to‘qnashuvlar harbiy ekspertlarni ommaviy axborot vositalarining samarali ta’sirini global tahvil qilishga majbur qildi. Bu orqali nizolashayotgan tomonlar axborot urushiga qarshi davlat va harbiy salohiyatidan foydalangan holda o‘z salohiyatini himoya qilish va rivojlantirish, vaziyatga xolis baxo berish imkonini beradi. Axborot urushi – “nima, qachon, qaerda, nima uchun va qay darajada” degan savollarga javob topish urushidir.

Axborot qarama-qarshiligi - bu tomonlar ishtirot etadigan kurash shaklidir. Bu kurashda tomonlar axborot resurslariga ta’sir ko‘rsatishning maxsus usullari va vositalaridan foydalangan holda ikkinchi tomonning axborot resurslariga bevosita ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Amerikalik tadqiqotchilarning fikricha, axborot operastiyalari orqali amalga oshirilayotgan axborot qarama-qarshiligi harbiy kuchlar, ilmiy markazlar va turli siyosiy tashkilotlarning tayyorgarligi va faoliyatida axborot urushi texnologiyalaridan keng foydalanishni nazarda tutadi[8].

Axborot qarama-qarshiligining asosiy maqsadi boshqa tomonning barcha turdagи resurslariga, shu jumladan axborotiga ta’sir qilishdir. Axborot qarama-qarshiligi samaradorligining asosiy mezoni - bu qarama-qarshi tomonning tarmog‘iga va kommunikastiya texnologiyalariga, nihoyat, kompyuterlarga ruxsatsiz kirishdir. Boshqa tomondan, axborot ziddiyatida demografiya, tashviqot, “miya yuvish”, jamoatchilik fikri va ongini manipulyastiya qilish va hokazo usullaridan keng foydalaniladi. Aytish joizki, axborot urushi jarayonida ikkinchi tomonning hayotiy moliyaviy, bank, aloqa, elektr energiyasi va transporti, jumladan, kompyuter tarmog‘i hamda internet tarmog‘ini falaj qilish mumkin. Shu maqsadda veb-guruhlар va xakerlar doimiy ravishda Internetda ishlaydi. Ular maxsus tashkil etilgan, maqsadga yo‘naltirilgan mutaxassislardir.

Xulosa qilib aytganda, strategik axborot urushi kundan-kunga ahamiyatliligi oshib bormoqda va O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, axborot targ‘iboti va aloqa harbiy strategiyaning bir qismi hisoblanadi.

Axborot urushining talofatlari boshqa urush shakllari keltiradigan talofatlardan kam emas. Shu sababli ham axborot urushi keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni muntazam tahlil qilish maqsadga muvoviqdir.

O‘z bilimlarini oshirish, “Davlat siri to‘g‘risida”gi qonun talablariga rioya etish nafaqat har bir davlat xizmatchisining balki har bir fuqaroning burchidir. Boshqa tomondan, axborot xavfsizligini ta’minalash sohasida nafaqat ommaviy axborot vositalari, balki mamlakatimiz fuqarolari o‘rtasida ham huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega. Ma’lumotlarimizning xavfsizligi eng muhim masalalardan biri ekanligini chuqur anglab, unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Президент.уз Ўзбекистон Республикаси Куролли Кучлари ташкил этилганлигининг 31 йиллиги муносабати билан Ватан химоячиларига байрам табриги. 13.01.2023
2. Грешневиков А.И. Информационная война. Внешний фронт. Зомбирование, мифы, цветные революции. Книга I. М.: Книжный мир, 2016. - 512 с.

3. Беляев Д. Разруха в головах. Информационная война против России. Серия: Николай Стариakov рекомендует прочитать. СПб. Питер. 2014. - 256 с.
4. Лузан Н. Контрразведка. Тайная война Тайны спецслужбы М. Кучково поле 2014. – 304 с.
5. Рахимзода Ш.К. Информационная война и проблемы обеспечения национальной безопасности в Центральноазиатском регионе: диссертация ... кандидата политических наук. - Душанбе, 2020. - 144 с.
6. Попадюк А.Э. Информационная война как фактор дестабилизации института президентства в Российской Федерации: диссертация ... кандидата политических наук: . - Москва, 2021. - 162 с.
7. Губарев А.Б. Информационные войны как объект политологического исследования: диссертация ... кандидата политических наук. - Уссурийск, 2005. - 170 с.
8. Михальченко И.А. Информационные войны и конфликты идеологий в условиях геополитических изменений конца XX века: диссертация ... кандидата политических наук. - Санкт-Петербург, 1998. - 201 с.